

TUBAN O`SIMLIKLAR VA ULARNING KLASSIFIKATSIYASI

Nosirova Ruxshona Zafarjon qizi
Andijon Davlat Pedagogika Instituti
Biologiya yo`nalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14266311>

Abstract: Introduction to the world of terrestrial plants, a brief history of systematics, taxonomic categories, the role of terrestrial plants in nature and human life.

Аннотация: Знакомство с миром бездонных растений, краткая история систематики, таксономических категорий, роль бездонных растений в природе жизни человека.

Keywords: Thallus, protists, mycoids, fungi, viruses, bacteria, blue-green algae.

Ключевые слова: Таллий, протисты, микоиды, грибы, вирусы, бактерии, сине-зеленые водоросли.

Tuban o`simliklar ko`pchilik adabiyotlarda Thallophyta guruhiga qo`shib o`rganilgan. XX asrning o`rtalariga kelib, turli organizmlarning xujayralari chuqur o`rganiladigan bo`lgandan keyin xamma tirik organizmlar prokariot ("pro"-avvalgi, oldingi, "karion"-yadro, ya'ni yadrocha) va eukariotlar guruhi ("eu-haqiqiy, asl, chin, karion"-yadro) ga bo`linib o`rganilmoqda.

Mashhur shved tabiatshunosi Karl Linney (1707-1778) o`zining 1735 yilda nashr etilgan "Tabiatning sistemaikasi" nomli asarida tabiatni anorganik, ya'ni toshlar olamiga va ikkita o`simliklar va hayvonlar olamiga bo`lgan. Ammo, 1821 yili Friz zambrug'larni alohida olamga ajratishni taklif qilgan. Shunga qaramay, bu taklif boshqa olimlar tomonida qo`llab-quvvatlanmadi.

XIX asrning o`rtalarida ba'zi olimlar o`simliklar va hayvonlarga xos belgilarga ega bo`lgan organizmlar gruppasiga e'tibor bera boshladilar. Bu organizmlar gruppasiga xivchinlilar kiritilib, ular fotosintez protsessini amalga oshirishga qaramay tuban zambrug'lar va bulutlar qatoriga kiritilgan.

Sistematikada son-sanoqsiz o`simlik turlarini o`xshash belgilariga, qarindoshlik darajalariga, oziqlanishiga va kelib chiqishiga qarab, ularni bir-biriga bo`ysunadigan taksonlar yoki sistematik kategoriyalarga birlashtiradi. Sistematikada asosiy, eng kichik sistematik birlik yoki takson turdir (species). Xar qaysi tur bir turkumga (genus) birikadi. Turkum qarindoshlik aloqalari bo`lgan turlarning yig'ma taksonomik kategoriyasidir. Turkum juda ko`p yoki bir necha, hatto bitta turdan iborat bo`lishi mumkin. Turkum o`z navbatida kenja turkumga, keyin esa seksiyalarga bo`linishi mumkin.

Tuban o`simliklarning kelib chiqishi, taraqqiyot yo`llari oziqlanish usullari va vegetativ organlarning tuzlishiga xatto ranglariga qarab ham ularni bir necha bo`limlarga ajratiladi. Busoxadagi urinishlar, izlanishlar va tadqiqotlardan so`ng keyingi chorak asr mobaynida tuban o`simliklar bo`limlariga quydagicha bo`linadi.

Ko`k-yashil suvo`tlar-Cyanophyta

Xrizomonadsimonlar yoki Tilla rang suvo`tlar-Chrysophyta

Pirrofitsimonlar-Pyrrophyta

Evglenasimonlar-Euglenophyta

Yashil suvo`tlar-Chlorophyta

Xar-xil xivchinlilar yoki sarg'ish yashil suvo`tlar-Heteroconthae yoki-Xantophyta

Diatom suvo'tlar-Diatomeae yoki -bacillariophyta
Qo'g'ir suv o'tlar-Phaeophyta
Qizil suvo'tlar-Rhodophyta
Shilimshiqsimonlar-Myxophyta
Zambrug'lar-Fungi yoki Mycophyta
Lishayniklar-Lichenophyta.

Tuban o'simliklar tabiatda va odamlar hayotida katta ro'l o'ynaydi. Ular o'lik organik moddalarga aylantiradi, ya'ni minerallashtiradi. Bu protsses, asosan bakteriyalar va zambrug'lar ishtirokida boradi. Yuqori o'simliklaruchun g'oyat zarur bo'lgan havodagi erkin azotdan xosil bo'ladigan tuproqdagi azot birikmalari xam bakteriyalarning faolyati natijasida vujudga keladi.

Tuban o'simliklarda sodir bo'ladigan moddalar almashinuvi tufayli ulardan tabiatda (havoda, suvda, tuproqda) uchramaydigan turli moddalar ajralib chiqadi. Masalan, ba'zan bakteriya va zambrug'lar ulmin kislota ishlab chiqaradi, xlorofilli suvo'tlar suv, tuproq va havoga o'zlaridan kislarod chiqaradi. Xilma-xil chirish va achish protsseslari ham tuban o'simliklarning hayot faoliyati bilan chambarchas bog'langan. Non pishirish, vino, spirt tayyorlash, siloslash, tuzlash va boshqalar shular jumlasidandir.

References:

1. Sahobiddinov S.S. O'simliklar sistematikasi "O'qituvchi" nashriyoti Toshkent -1976
2. Tuban O'simliklar Toshkent "O'qituvchi" 1995
3. Tojiboyev SH.J O'simliklar sistematikasi Toshkent "O'qituvchi" 1990